



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 08 | pp. 85-91 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON HUDUDLARINI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI KLASTER TAHLILI ASOSIDA BAHOLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI



O'rozov Azamat Otaboyevich

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi 2010, 2023 va 2024-yil statistik ma'lumotlari asosida klaster tahlili va asosiy komponentlar tahlili (PCA) yordamida o'rganilgan. Tadqiqot natijalari mamlakat hududlarini iqtisodiy faollik, investitsion jozibadorlik, xizmatlar sohasi rivoji va inson kapitali bo'yicha uchta klasterga ajratish imkonini berdi. Natijalar hududiy tafovutlarning asosiy omillari sifatida xizmatlar sektori, tashqi savdo, investitsiyalar va ta'lim tizimini ko'rsatdi. Maqolada klasterlash natijalari asosida barqaror va muvozanatli iqtisodiy siyosatni shakllantirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: hududiy rivojlanish, klaster tahlili, PCA, iqtisodiy tafovut, investitsiya, xizmatlar sohasi, inson kapitali.

Abstract. This article studies the level of socio-economic development of the regions of Uzbekistan using cluster analysis and principal component analysis (PCA) based on statistical data for 2010, 2023 and 2024. The results of the study allowed us to divide the country's regions into three clusters in terms of economic activity, investment attractiveness, development of the service sector and human capital. The results showed that the main factors of regional differences are the service sector, foreign trade, investments and the education system. The article develops scientific conclusions on the formation of a stable and balanced economic policy based on the results of clustering.

Keywords: regional development, cluster analysis, PCA, economic differences, investment, service sector, human capital.

1. Kirish

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida hududlarni kompleks rivojlantirish, iqtisodiy o'sishning hududiy nomutanosibliklarini kamaytirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Hududlar iqtisodiyotini chuqur tahlil etish, ularning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini aniqlash va rivojlanish darajasini solishtirish zamonaviy ilmiy yondashuvlarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, klaster-tahlil usuli hududlarni umumiy rivojlanish ko'rsatkichlari asosida guruhlash, o'xshash yoki farqli iqtisodiy tuzilmalarga ega mintaqalarni ajratish imkonini beradi.

Mazkur yondashuv yordamida har bir hududning iqtisodiy salohiyati, resurslardan foydalanish samaradorligi, investitsion jozibadorligi hamda ijtimoiy infratuzilma rivojlanish darajasi ilmiy asosda baholanadi. Shuningdek, klaster-tahlil natijalari hududlar o'rtasidagi o'zaro tafovutlarni aniqlash, differensial iqtisodiy siyosatni shakllantirish va

mintaqaviy rivojlanishni muvozanatli yo'naltirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini klaster-tahlil asosida o'rganish O'zbekistonning barqaror va inklyuziv iqtisodiy taraqqiyoti uchun dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

2. Adabiyotlar sharhi

Hududiy iqtisodiy muammolarni ilmiy o'rganish va ularni bartaraf etish masalalari doimo iqtisodchi-olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, mazkur masalaning nazariy va amaliy jihatlarini, xususan, hududiy raqobatbardoshlikni oshirish masalalariga xorijlik iqtisodchi olimlardan A.Venables, X.Glenn, P.Krugman, B.Robert [1], M.Fujita [2], B.Shaun, M.Enrayt [3] va boshqalar juda katta hissa qo'shganlar.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan A.G.Granberg, Yu.A.Gadjiev [4], O.G.Dmitrieva, N.Zubarevich, S.V.Kazantsev, I.N.Merenkova [5], A.N.Nosov [6], O.I.Panteleeva, D.Sepik, L.A.Serebryakova va boshqalar hududiy-iqtisodiy rivojlanishning nazariy masalalari, hududiy iqtisodiy o'sish va rivojlanishni boshqarish, mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishini tashxislash, hududiy iqtisodiy salohiyat va raqobatbardoshlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

O'zbekistonda ham hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va uni boshqarish, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish masalalari iqtisodchi olimlarning bu boradagi ilmiy qiziqishlari sohasi bo'lib kelmoqda. Jumladan, hududiy sanoat majmualarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish, mintaqalarni kompleks rivojlantirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy joylashtirish va boshqarish, mamlakat mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning metodo-logik asoslarini takomillashtirish singari masalalar O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.S.G'ulomov [7], T.M.Axmedov, A.M.Sodiqov [8], A.M.Qodirov, Sh.H.Nazarov [10], B.Ro'zmetov [9], Sh.B.Imomov, P.Z.Xashimov, F.T.Egamberdiev, A.A.Qayumov, A.J.Siddiqov [11], I.O.Yakubov [12] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida keng o'rin olgan.


Biroq yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyati bevosita mintaqalarni umumijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, hududlarda sanoatni rivojlantirishda klaster mexanizmidan foydalanish masalalari o'rganilmagan. Ushbu maqolada o'rganilayotgan muammoga etarlicha e'tibor qaratilmaganligi va uning munozarali tavsifga ega ekanligi masalaga yangicha ilmiy yondashuvni taqozo etadi.

3. Tahlil va natijalar

Ushbu tadqiqot 2010, 2023 va 2024 yil ma'lumotlari asosida klaster tahlilini amalga oshirilgan bo'lib, 2010 yil natijalari ko'ra, birinchi klaster (0) asosan agrar-sanoat salohiyati kuchli bo'lgan, lekin Toshkent shahridan keyin iqtisodiyot hajmi bo'yicha yuqori turuvchi viloyatlarni birlashtiradi. Bu klasterda yalpi ichki mahsulotning o'rtacha hajmi 5911,1 mlrd so'mni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqorida. Jon boshiga YaIM 2350,8 ming so'm bo'lib, resurslardan foydalanish samaradorligi ham sezilarli darajada. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1128,4 mlrd so'm, tashqi savdo ko'rsatkichlari 1057,8 mlrd so'mga yetgani ham bu guruh hududlarining nisbatan barqaror rivojlanayotganini anglatadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'rtacha 2971,6 mlrd so'mni tashkil etib, agrar sektor ham muhim rol o'ynayotganini ko'rsatmoqda. Kichik tadbirkorlikning sanoat va xizmatlar bo'yicha faoliyati yuqori bo'lib, mos ravishda 762,5

mlrd va 1083,8 mlrd so'mga yetgan. Oliy ta'lim bitiruvchilari sonining o'rtacha 4204,9 nafar bo'lishi bu klasterda inson kapitalining shakllanishi ham muhimligini ko'rsatadi.

Ikkinchi klaster (1) iqtisodiy hajmi kichikroq hududlarni qamrab oladi. Yalpi ichki mahsulot hajmi 2935,7 mlrd so'm bo'lib, birinchi klasterga nisbatan ikki baravar past. Shunga qaramay, jon boshiga YaIM 2723,9 ming so'mni tashkil etib, resurslardan foydalanish samaradorligi nisbatan yuqori. Bu shuni ko'rsatadiki, ushbu hududlarda aholi sonining kichikligi iqtisodiy ko'rsatkichlarni jon boshiga hisoblaganda nisbatan yuqori ko'rsatadi. Tashqi savdo hajmi 349,2 mlrd so'm, qishloq xo'jaligi mahsulotlari esa 1416,7 mlrd so'm bo'lib, nisbatan past ko'rsatkichlarga ega. Kichik tadbirkorlik faoliyati ham ancha cheklangan: sanoatda 254,2 mlrd, xizmatlarda esa 426,2 mlrd so'm.



1-rasm. O'zbekiston hududlarining 2010 yildagi ma'lumotlari asosida klasterlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarining dendrogrammasi¹

Bu klasteri iqtisodiy salohiyat jihatidan resurslarga tayanadigan, ammo keng diversifikatsiyaga ega bo'lmagan hududlar deb tavsiflash mumkin. Oliy ta'lim bitiruvchilari sonining 2804 nafarda to'xtashi ham inson kapitali ta'minoti bo'yicha imkoniyatlarning nisbatan pastligini ko'rsatadi.

Uchinchi klaster (2) esa Toshkent shahridan iborat bo'lib, barcha ko'rsatkichlarda keskin yuqori natijalarni qayd etgan. Yalpi ichki mahsulot hajmi 11863,8 mlrd so'm, jon boshiga YaIM esa 5236,9 ming so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar boshqa klasterlardan bir necha baravar yuqori. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 3309 mlrd so'm, tashqi savdo hajmi 9006,8 mlrd so'm, qurilish hajmi esa 1228,4 mlrd so'm bo'lib, Toshkent shahri mamlakat iqtisodiy "drayveri" ekanini tasdiqlaydi. Xizmatlar sohasi va bozor xizmatlari jon boshiga 3887 ming so'mni tashkil etib, bu ham boshqa hududlardan keskin farq qiladi.

¹ Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirildi.

Eng qiziqarli jihat – oliy ta’lim bitiruvchilari soni 28 720 nafar bo’lib, butun mamlakat bo’yicha ilmiy-intelektual salohiyatning asosiy markazi aynan Toshkent ekanini ko’rsatadi.

1-jadval

O'zbekiston hududlarining 2010 yildagi ma'lumotlari asosida klasterlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarining PCA yuklamalari (PC1 va PC2)²

Ko'rsatkich	PC1	PC2
Yalpi_ichki	0.302	0.195
Aholi_jon_boshiga_yalpi	0.253	-0.216
Asosiy_kapitalga	0.305	-0.065
Aholi_jon_boshiga_invest	0.196	-0.26
Ishga_tush_uy	-0.082	0.424
Umumtalim_muassasalari_soni	-0.07	0.446
Ambulator_poliklinikalar_soni	0.267	0.261
Tashqi_savdo	0.322	-0.033
Qurilish	0.323	0.097
Aholi_jon_bosh_bozor_xizm	0.321	-0.081
Qishloq_xuj_mahsulotlari	-0.089	0.386
Doimiy_aholi	0.089	0.458
Kichik_tadb_sanoat	0.316	0.115
Kichik_tadb_xizmatlar	0.321	0.088
Oliy_talim_bitiruvchilari	0.316	-0.011

PCA natijalari bu klaster tafovutlarini yanada chuqurroq izohlash imkonini beradi. Birinchi asosiy komponent (PC1) hududlar farqlanishining 58 foizini tushuntiradi. Bu komponent tarkibida qurilish (0,323), tashqi savdo (0,322), aholi jon boshiga bozor xizmatlari (0,321), kichik tadbirkorlik xizmatlari (0,321), kichik tadbirkorlik sanoati (0,316), oliy ta’lim bitiruvchilari (0,316), asosiy kapitalga investitsiya (0,305) va yalpi ichki mahsulot (0,302) eng katta yuklamaga ega bo’ldi. Demak, hududlarni farqlashda eng muhim determinantlar urbanizatsiya, xizmatlar sohasi, tashqi iqtisodiy aloqalar va ta’lim tizimi bilan bog’liq. Bu esa iqtisodiy geografiya nazariyalari, xususan, aglomeratsiya iqtisodiyoti va Porterning klasterlar nazariyasi bilan to’la mos keladi.

2-jadval

O'zbekiston hududlarining 2010 yildagi ma'lumotlari asosida klasterlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarining PCA izohlangan dispersiya³

Asosiy komponent	Izohlangan dispersiya (%)
PC1	58.0
PC2	28.13
PC3	7.55
PC4	2.33
PC5	1.67

² Muallif tadqiqotlari asosida tuzildi.


³ Muallif tadqiqotlari asosida tuzildi.

Ikkinchi asosiy komponent (PC2) esa 28,13 foiz farqlanishni tushuntiradi va asosan an'anaviy sektorlar bilan bog'liq. Masalan, uy-joy qurilishi (0,424), umumta'lim muassasalari soni (0,446), qishloq xo'jaligi mahsulotlari (0,386) va doimiy aholi soni (0,458) kabi ko'rsatkichlar bu komponentda yuqori yuklamaga ega. Bu shuni ko'rsatadiki, hududlarni farqlashda birinchi o'rinda xizmatlar sektori va ta'lim bo'lsa-da, demografik va agrar omillar ham muayyan rol o'ynaydi. Biroq ularning ta'siri umumiy variatsiyaning atigi uchdan bir qismini tashkil etadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, mamlakat hududlari o'rtasidagi asosiy iqtisodiy tafovutlar xizmatlar sohasi, tashqi savdo, investitsiya va ta'lim tizimi rivojlanishi bilan izohlanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yoki oddiy demografik ko'rsatkichlar esa hududlarni farqlashda nisbatan pastroq ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat modernizatsiya nazariyasi va xizmatlar iqtisodiyoti konsepsiyasiga mos ravishda, iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichida xizmatlar va bilimlarga asoslangan omillar peshqadamlik qilayotganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, klaster va PCA tahlillari hududiy iqtisodiy siyosat uchun muhim amaliy xulosalarni beradi. Birinchidan, resurslarni faqat agrar sektorga yo'naltirish emas, balki xizmatlar sohasi va ta'limni rivojlantirish hududlararo tafovutni kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ikkinchidan, Toshkent shahrining keskin ustunligi hududiy balansni buzmasligi uchun boshqa yirik markazlarni – masalan, Samarqand, Navoiy yoki Farg'onani iqtisodiy va ta'lim klasterlari sifatida rivojlantirish zarur. Uchinchidan, kichik tadbirkorlik va tashqi savdo imkoniyatlarini kengaytirish orqali hududlarda yangi o'sish nuqtalarini shakllantirish mumkin.

Hududlarning klasterlash natijalari (Yalpi ichki mahsulot va jon boshiga YalM asosida)



2-rasm. O'zbekiston hududlarining 2010 yildagi ma'lumotlari asosida klasterlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarining grafigi⁴

Hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkazilgan klasterlash va asosiy komponentlar tahlili mamlakatning makro va mezo darajadagi rivojlanish tafovutlarini chuqur anglash imkonini beradi. Har bir viloyat yoki mintaqqa iqtisodiyotida mavjud

⁴ Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirildi.

farqlarni aniqlash, ularning asosiy ajratuvchi omillarini ko'rsatib berish iqtisodiy siyosatning hududiy ixtisoslashuvi, resurslarni qayta taqsimlash va investitsiya ustuvor yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, barcha ko'rsatkichlar standartlashtirilgan holda olingan va Ward ierarxik usuli asosida klasterlash amalga oshirilgan. Bu usul hududlarni faqat yalpi ichki mahsulot hajmi yoki aholi soni kabi birgina omil bo'yicha emas, balki kompleks ko'rsatkichlar majmuasi asosida farqlash imkonini beradi. Asosiy komponentlar tahlili (PCA) esa o'z navbatida, ko'rsatkichlar ichida qaysilari hududlar o'rtasidagi asosiy farqlanishni izohlashda eng kuchli rol o'ynashini ko'rsatib beradi.

2010 yildagi natijalar shuni ko'rsatdiki, hududlar o'rtasidagi tafovutlarning 58 foizi birinchi asosiy komponent (PC1) orqali tushuntiriladi va ushbu komponent tarkibida qurilish hajmi, tashqi savdo ko'rsatkichlari, aholi jon boshiga bozor xizmatlari, kichik tadbirkorlik sektori (sanoat va xizmatlar), oliy ta'lim bitiruvchilari soni, asosiy kapitalga investitsiyalar va yalpi ichki mahsulot hajmi eng katta yuklamaga ega bo'ldi. Demak, bu omillar hududlarni bir-biridan ajratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekan.

Nazariy jihatdan qaralganda, bu natija urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Iqtisodiy geografiya nazariyalari, xususan, Markaz-periferiya modeli va aglomeratsiya nazariyasi shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasi, tashqi savdo aloqalari va ta'lim tizimi rivojlangan hududlar odatda iqtisodiy rivojlanishda peshqadam bo'ladi. Toshkent shahri misolida bu yaqqol ko'rinadi: barcha asosiy ko'rsatkichlarda keskin yuqori natijalarga ega bo'lgani sababli u alohida klaster sifatida ajralib chiqdi. Toshkent shahrining ustunligi, birinchi navbatda, kapital jamg'arish, tashqi savdo hajmi, xizmat ko'rsatish sohasi va ta'lim tizimining yiriklashuvi bilan izohlanadi. Bu holat nafaqat mamlakat miqyosida, balki mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasi doirasida ham metropol markazlarining iqtisodiy "drayver" sifatida alohida o'rinni egallashini tasdiqlaydi.

4.Xulosa

O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini 2010, 2023 va 2024-yil ma'lumotlari asosida klaster va asosiy komponentlar tahlili (PCA) yordamida o'rganish mamlakatning mintaqaviy iqtisodiy manzarasini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, respublika hududlari iqtisodiy faollik va rivojlanish darajasi bo'yicha aniq guruhlanadi, bu esa ularning resurs salohiyati, xizmatlar sektori rivoji, investitsiya faolligi va inson kapitali bilan chambarchas bog'liqdir.

Birinchi klaster tarkibiga agrar va sanoat salohiyati yuqori, ammo iqtisodiy diversifikatsiya darajasi yetarli bo'lmagan viloyatlar kiritildi. Bu hududlarda yalpi ichki mahsulot hajmi yuqori, asosiy kapitalga investitsiyalar va qishloq xo'jaligi sektori rivojlangan. Ularning iqtisodiy o'sish potentsiali barqaror bo'lsa-da, ilmiy-innovatsion faollik va xizmatlar sohasini kengaytirish zarur.

Ikkinchi klaster iqtisodiy hajmi kichik, biroq resurslardan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lgan hududlarni qamrab oladi. Bu hududlarda aholining nisbatan kamligi sababli jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar yuqori, ammo iqtisodiyot bir yoqlama rivojlangan. Shu bois xizmatlar sektorini rivojlantirish, infratuzilmani mustahkamlash va inson kapitalini oshirish muhimdir.

Uchinchi klaster – Toshkent shahri – iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha mutlaq yetakchilik qiladi. Bu hududda YIM, investitsiyalar, tashqi savdo, qurilish va xizmatlar sohasi bo'yicha ko'rsatkichlar boshqa hududlardan bir necha barobar yuqori.

PCA tahlili natijasida aniqlanishicha, hududlar o'rtasidagi farqlanishning asosiy omillari qurilish, tashqi savdo, xizmatlar sohasi, kichik tadbirkorlik, investitsiyalar va ta'lim tizimi bilan bog'liq. Ushbu omillar umumiy tafovutning 58 foizini tashkil etadi. Demak, iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari xizmatlar sohasi, investitsiyalar va inson kapitalidir.

Klaster va PCA tahlillari hududiy iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslash, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, O'zbekiston uchun xizmatlar sektori, innovatsiyalar va ta'lim tizimini rivojlantirish, shuningdek, Toshkent tashqarisidagi yirik markazlarni iqtisodiy klasterlar sifatida shakllantirish ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Roberts B. National and regional corporate spatial structure / B. Roberts, A. Murray // The Annals of Regional Science. 2002. Vol. 36.;
2. Fujita -M., Krugman P., Venables A.J. The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade. - The MIT Press, 2001. P. 384.
3. Enright M. The Geographical Scope of Competitive Advantage // Stuck in the Region? Changing scales for regional identity / Ed. By E. Dirven, J. Groenewegen and S. van Hoof. Utrecht, 1993. P. 87102.
4. Гаджиев Ю.А. Зарубежные новые теории регионального роста и развития //“Корпоративное управление и инновационное развития Севера”. Вестник Сыктывкарского государственного университета. 2008 №2;
5. Меренкова И.Н. Диагностика уровня развития сельских территорий // “Региональная экономика: теория и практика”, 2010, №24;
6. Носов А.К. Управление взаимоотношениями в региональной кластерной структуре, связанной цепью поставок. // Логистика и управление цепями поставок, 2009, №6;
7. Гулямов С.С. Моделирование социально-экономического развития территориально-промышленных комплексов. -Т.: Фан, 1980. - 194 с.;
8. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика // Монография. Т.: IQTISOD - MOLIYA, 2005. - 280 с.;
9. Рузметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис.....докт. экон. наук. -Т.: 1998;
10. Назаров Ш.Х. Ўзбекистон минтақалари рақобатдошлигини оширишнинг методологик асосларини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси автореферати. -Т.: 2016. - 5 б.;
11. Сиддиқов А.Ж. Иқтисодий ислохотларнинг янги босқичида саноат ишлаб чиқаришнинг минтақавий муаммолари (Қашқадарё вилояти мисолида) кандидатлик диссертацияси автореферати. -Т., 2006;
12. Якубов И.О. Минтақавий иқтисодиёт. -Т.: ТДИУ, 2016.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

